

- 1.Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘zbekiston 2017.-488 b
- 2.Tolipov O‘., Usmonboyeva U. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205.
- 3.Tulenov J., G‘ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 253 b.
- 4.Tulenov J., Yusupov K., G‘ofurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo‘nalishlar. – T.: O‘zbekiston, 1993. – 48 b.

**Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish
o‘zbek tili 2-bosqich talabasi Xidirova Turg‘unoy**

**Ilmiy rahbar: Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi filologiya f.b.f. doktori, dotsent Gulchehra Qo‘ylijeva**

Mavzu : Badiiy asar tili. Badiiy asar tilining tasviriy va hissiy xususiyatlari . (Dostoyevskiyning “Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar “ romani tilining obrazliligi)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy asar tili , uning xususiyatlari badiiy asar tilining asarni tushunish va undagi qahramonlar, obrazlar holatini his eta olish , tasviriy ifodasini kuchaytirishga naqadar katta hissa qo‘shishni ko‘rib chiqamiz*

Kalit so‘zlar:*Badiiy asar tili , umumxalq tili , adabiy til , badiiy til, hissiy ekspressivligi ta’siri , differentsatsiyalanganlik , sochma shakl , tizma shakl , badiiy tilning adabiy til hamda umumxalq tili bilan munosabati , badiiy nutq shakllari , lakonizm , aforizm .*

O‘zbek tilshunosligida har qanday milliy tilni uchga bo‘ladi **1.Umumxalq (jonli)tili. 2.Adabiy til 3. Badiiy(poetik til).** Ularning vazifasi, o‘rni va qo‘llanilishiga ko‘ra xususiyatlari ko‘rsatib beriladi. Umumxalq tili jonli so‘zlashuv tili hisoblanib, unga adabiyotshunos olim, prof. Hotam Umurov shunday ta’rif beradi: “*Jonli til — erkinlikni yoqtiradi: sheva ham, varvarizm ham, vulgarizm ham, jargonizm ham, neologizm ham... uning joni-tani bo‘lib xizmat qilaveradi, uning chek-chegarasi bo‘lmaydi*”[1.144]. Shunga ko‘ra, umumxalq tili muayyan grammatik qoidalarga amal qilmaydi va ushbu xususiyat orqali u adabiy tildan farqlanadi. Badiiy tilni esa umumxalq tilining bir namunasi deya olishimiz

mumkin. Negaki yozuvchi o'z asaridagi ta'sir kuchini va xususiyatini oshirish uchun turli xil shevalardan, argon va jargonlardan, varvarizm va vulgarizmlardan ham o'z o'rnida foydalanishga haqli bo'ladi. Umumxalq tili singari aniq qoliplashtirish unga majburiy element emas. Badiiy asarda eng avval ko'zga tashlanuvchi badiiy poetik til asar qahramonining ichki olamini "yarq" etib oshib berishi bilan birgalikda, uning yashash hududi - arealini va xarakter- xususiyatini ko'rsatib beruvchi kalit deyish mumkin. Kitobxon yozuvchining o'z qahramonini qaysi sheva orqali gapirtirishi bilan birga uning yashash hududini ham bilib olishi mumkin. Bu kabi holatlar xilma-xil shevalarga boy yurtimiz yozuvchilari va o'z mahalliy shevasini asarlariga singdirgan, hatto kitobxonni ham asar tiliga maftun qilib qo'ygan "nasrdagi sa'j ustasi" deb nom chiqargan mohir yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida ko'plab ko'zga tashlanadi. Yozuvchi surxon vohasi shevasini asar qahramoni tilidan quyidagicha gapirtiradi: *"Bo'rining onasi Bo'rining yelkasiga beqasamdan to'n yopdi. Peshonasidan chop- cho'lp o'pdi:*

– Endi sen ham mening ulim bo'lding! -dedi. Bo'rida Nasimlarnikiga o'xshagan to'n kiyib edi"[4].

Bu yerda shevaga xos **"ulim"** so'zi adabiy tildagi **"o'g'lim"** so'zi o'rnida qo'llangan, ba'zi joylarda, ayniqsa, Surxondaryo vohasi hududlarida bu so'z haligacha shu tariqa qo'llanishini kuzatish mumkin.

"Chiniminan yiqildimmi- a ,chiniminanmiha ?"[4] – bu o'rinda ham shunga o'xshash holatni kuzatishimiz mumkin. So'zlashuv uslubiga xos tarzda bilan bog'lovchi sini oldingi so'zga qo'shib qo'llash kuzatiladi. "chinniminanmi "

"... Bo'lmasa raisni nima qilayin chuqur kovlab ko'mib tashlay berayminmi ?

– Yo'q , unday qilma . Bunday qil : nahsni rayon olib bor! Kattalarga ko'rsat boshqa nahslarinida aytib aytib tashla! " [4] – ushbu parchada ham ayrim hududlarda uchrab adabiy tilga xos bo'lmagan holat uchraydi: **kelishik shakllarini tushirib qoldirish va yoki o'zgartirib aytish.** " rayon olib bor" rayonga emas rayon qo'llanilmoqda, bundan tashqari qahramon sovet kishisi ekanligini eslatib o'tuvchi holat ham shu o'rinda mavjud . **U ham bo'lsa arxaik so'z ishlatish : tuman** emas rayon .

Jahon adabiyotidan tarjima qilingan badiiy asar namunalarida bunday holatni ya'ni shevalarga tayanib bu asar qaysi hududga tegishli ekanligini kuzatish biroz murakkablik tug'dirishi aniq. Sababi shundaki, biz aynan, turli mamlakatlar lahjasi va shevalarining qanday turlari borligini va ularning qay darajada tarqalganligini bilmaymiz. Bunday murakkab tadqiqot olib borish uchun o'sha davlatning adabiy tili va shevasini, uning tarixini va madaniyatini chuqur o'rganish talab qilinadi.

Adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda asar bitish, shevalardan o'rinli foydalanish yozuvchining tajribasidan darak beruvchi xususiyat bo'lib, bu asarga nisbatan kitobxonlar auditoriyasining kengligi, mehri va muhabbati baland bo'lishi kuzatiladi. Xalq tilining shevalari hisobiga boyib borishi ham taniqli adiblar, shoirlar hamda adabiyotshunos olimlarning ijodkorligiga, mahoratiga bog'liq jihatlari ham bo'lishi mumkin ekan.

Badiiy asar tili xususiyatlari qonuniyatlarining eng kattasi obrazlilikdir. Obrazlilik asardagi qahramon ruhiy holati va nafaqat qahramonning, balki narsa predmet, voqea hodisa, tuyg'u va kechinmalarni ham ifoda etadi. Obrazlilikni namoyon etuvchi, asosiy va bebaho qurol bo'lib xizmat qiluvchi tasviriy vositalar – aforizm va maqollar, ma'no ko'chishlari, kesatq so'zlar kabilar ham ma'lum. Bunday hollarda barcha kishilar tashbehtar, tanosub-u mubolag'alarga to'lib toshgan she'rlar ko'z oldingizga keladi. Haqiqatdan ham badiiy tilda mana shu holatlar yaqqol ko'zga tashlanadi ammo faqatgina lirik asarlarda bu holat uchraydi degani emas. Asardagi qahramonning o'y surib o'tirganligi va so'zlayotganida jahli chiqishi yoxud xursandchilik belgilari yozuvchining mahoratini qay darajada ishga solanganligini bilib olishimiz mumkin. Jahon adabiyoti namoyondalaridan biri bo'lmish Dostoyevskiyning deyarli barcha asarlarida atrofni kuzatish va sinchkovlik mahsuli bo'lgan har qanday obrazga xos belgilar, ifodalar va ruhiy kechinmalarni kuzatamiz. Darhaqiqat ulug' rus yozuvchisi F.Dostoyevskiy asarlariga xos jihatlardan biri shuki, adib har bir manzarani tasvirlar ekan, bu holatga o'quvchini tubdan tayyorlab, muhit bilan tanishtirib chiqishni o'z oldiga yuksak maqsad qilib olgandek bo'ladi go'yo. Yozuvchining "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" romani ham o'z nomi bilan ruhiy holati anchagina og'ir va qiyinchiliklarga duch kelgan qahramonlarni ko'rsatib beradi. So'z kushi orqali ta'sirchanlikni oshirib, kitobxonni oddiy qarashlarga ham kuchli afsonaviy va sehrli ta'rif berib ishontirib qo'yadi : "U qandaydir g'ayritabiiy, qandaydir bir ajoyib, sehrli bir it bo'lishi kerak, balki, u it qiyofasiga kirib olgan allaqanaqa Azozil-u, uning taqdiri allaqanday sirli, noma'lum yo'llar bilan egasining taqdiriga bog'langan"[3].

Asar qahramonlaridan biri bo'lmish yetmish sakkiz yoshli chol Ieremiya Smitning iti Azorkani shunday ta'rif bilan ko'z oldimizda namoyon bo'ladi va muhrlanadi. U qari ustixonni etiga yopishib ketgan it bo'lsada, yozuvchi ham uning tashqi ko'rinishini shunday ta'riflaydi, ammo unga sehrli bir kuch , ilohiy vazifa yuklatilganiga o'quvchini ruhan ishontirib qo'yadi. Aynan mana shu adabiyotning asosiy quroli bo'lgan so'zning, badiiy asar tilining ta'sir kuchidir. Hissiy emotsionallik holatlari, ayniqsa, badiiy tilning ta'sirini ko'rsatib berishda asosiy ko'zga tashlanuvchi holatlardan biridir. Aynan mana shunday vaziyatlar yuqorida aytilgan " Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" asarida juda ko'plab topiladi.

Asarning bosh qahramonlaridan biri faqirlikda qolgan, onasining vafotidan keyin juda qashshoqlikdan qiynalsa-da uning vasiyatiga binoan boylarning eshigida kaltak yeb, xizmatkorlik qilib pul topsa ham, ehson yoki shunchaki berilgan pullarini olmaslikka qaror qilish bilan birga xastaligiga ham parvo qilmay mehnatga sho'ng'igan, onasining kasalini davolash uchun olgan qarzlarini to'lash uchun kaltaklarga ham chidab, pul topishga kirishgan jajji, pok qalbli, biroz g'alati fe'l - atvor egasi Nellining achinarli hayotiga duch kelamiz . Unga chin dildan rahm qilgan bosh qahramon Vanyani yoshiga qaramay sevib qoladi . Uni doim hayolini band etgan Natashadan zimdan rashk qiladi, ammo vaziyatni tushunib uydan chiqib ketadi. Asar personajlaridan biri bo'lmish qizi Natashani o'z yuziga oyoq qo'yganligi uchun kechira olmagan, ammo ming qilmasin uni kechirim so'rab kelsa jon dili bilan kechirishga tayyor turgan, asar nomiga mos ravishda pul uchun bor budini va ming hiylasini ishga soluvchi, hatto sodda va anchagina bo'sh o'g'lini ham shu yo'lda asosiy qurol qilib olgan Aleksandr Petrovich tomonidan xo'rlangan va haqoratlangan otasi Nikolay Sergeevich Nelli taqdirini eshitgandan so'ng his etishi, qizining qilmishidan o'rtangan otalik ko'ngil kechinmalarini yoritishda badiiy asar tilidan ustalik bilan foydalanishning juda dalilli namunasidir. Nellining o'limi arafasida va undan keyingi tasvirlarda Nikolay Sergeevich juda ham qiynaladi:

“... Chol uning o'lishini tasavvuriga sig'driolmasdi; buni hayoliga keltirishni ham istamasdi. U oxirgi damgacha hammamiz bilan olishib, “u o'lmaydi, albatta tuzalib ketadi “, deb bizni ishontirmoqchi bo'lardi. G'am yeyaverib, hammadan ko'p ozib ketdi, Nellining karavoti yonida ertadan kechgacha va hatto kechalari ham o'tirib chiqardi ... “[3].

Badiiy asar tili haqida gapirar ekanmiz , uning faqatgina jimjimadorlik va inson tanasini junbushga keltiruvchi holatlarni o'zida mujassam etadi deb gapni tugatib qo'ya olmaymiz. Badiiy asar tilining obrazlilik haqida gap borar ekan Hotam Umurov shunday yana bir jihatini aytib o'tadi: “Badiiy tilning obrazlilikidan tug'iladigan muhim xususiyatlardan yana biri ma'nodorligi (aforizm) va qisqaligi (lakonizm)dir. Badiiy asar maqsadi(mohiyati)ni ochishga xizmat qilmaydigan bironta so'z ishlatmagan, qisqa gapirib, ko'p ma'no anglatgan san'atkor doimo yutgan. Ularning tushunchasida so'zni tejash zarni tejashdan qimmatlidir, adabiy laqmalik, ko'p so'zlilik paxtavon miltiqqa o'xshaydi, tovushi bor-u o'qi yo'q. Bekorchi shovqin hisobiga asardagi maqsadni, uning badiiyligini yo'qqa chiqaradi”[1].

Yuqoridagi fikrlarni aytib o'tar ekan olim yozuvchining so'zni qisqa va lo'nda qilib tushuntirish uchun aforizmlardan foydalanishi kerakligi yaxshi , ammo o'quvchining hayolini chalg'itib uni tasvirlab o'tgan narsa va hodisada chalkashtirish kerakmasligi va bo'lmaydigan holatlarni keltirib tushunib bolmas

holatlar bilan hammani chalgʻitmaslik kerakligini haqida «... yozuvchi soʻzlarni siqilgan mushtday ixcham ishlatish uchun va boshqalar tomonidan qattiq siqishtirilgan soʻzlarni yoziltirib yuborish, ularda yashiringan, davr vazifalariga qarama-qarshi bolgan, umri tugagan narsalarni fosh boʻladigan darajada yoziltirib yuborish uchun maqollarni oʻrganishi zarur» - ulugʻ rus adibi M. Gorkiy fikrini keltirib oʻtadi.

Darhaqiqat xuddi shunday, mubolagʻa va miflarga tayanish sharq va gʻarb adabiyotiga xos keng tushuncha. Real hayotda bor narsani oʻquvchi tasavvurida yangicha holatda yaratish kerakmas, bu uchun asarda mifga xos xususiyatlarini aynan borligi boshqa holatda ham koʻrsatib oʻtish kerakligi ni aytmoqchi boʻladi. Bu holatga tushuntirish berib oʻtish uchun Farhod Musajonovning “Dushanba, nonushtadan soʻng” asarida chamadon tasvirida gʻalizlik borligini aytib oʻtadi.

Badiiy asar tilining rang barangligini taʼminlovchi yana bir jihat asardagi nutq asar qahramoni yoki muallif nutqiga tegishli ekanligidir. Bu holatni adabiyotshunos olim Hotam Umurov “*Badiiy asar tili — muallif nutqi va personajlar nutqi deb nomlanadigan bir-biri bilan murakab bogʻlanishda boʻlgan ikkita katta qismdan iborat*” [1] deya taʼriflaydi.

Aynan bu nutq shakllarini differentsatsiyalanganlik, yaʼni farqlangan deb atagan prof. Dilmurod Qurinov “Adabiyotshunoslikka kirish” nomli darsligida esa “*Badiiy tilning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramon nutqi ajratiladi*” [2] degan fikrni ilgari suradi. Muallif nutqining oʻzi turli tuzilgan boʻlishi mumkin, chunki baʼzida muallif nutqida asar muallifi emas asarning bosh qahramoni turishi mumkin. Bunday holatda hikoyachi tilidan aytilgan deyish anchagina toʻgʻriligi koʻrindi. Jumladan, ushbu maqolada oʻrganilayotgan “Xoʻrlanganlar va haqoralanganlar” asari ham muallifning oʻz tilidan emas hikoyachi bosh qahramon Ivan Petrovich tilidan aytiladi, demak muallif oʻz nutqini hikoyachi tiliga yuklaganligini koʻrish mumkin.

Adabiyotshunoslarimiz taʼkidlaganidek, personaj nutqi ham oʻz oʻrnida ikki turga boʻlinadi: monolog va dialog. Monolog (gr. Monos — bir va logos — soʻz, nutq) bir odam tilidan oʻziga va oʻzgalarga aytilgan nutq shakli, dialog (lat. dialogos — ikki kishi oʻrtasidagi soʻzlashuv) esa ikki yoki undan ortiq qahramonlar tilidan aytiladi. Lirik asarlarda monolog yetakchi oʻringa ega boʻlsa, dramatik asarlarda dialoglar oʻz oʻrnida koʻproq qoʻllanadi. Shuni aytib oʻtish kerakki, yuqoridagi fikr bilan lirik asarlar faqatgina monologdan iborat boʻladi, yoki dramatik asarlar boshidan oxiriga qadar dialoglardan iborat deyishdan yiroqmiz. Chunki asarda qahramon dialog vaqtida ham oʻz hayollari ogʻushida boʻlib, oʻzu bilan oʻzi suhbatlashish holatlari ham kuzatiladi. Mana shu vaziyatdagi qahramonning oʻzi bilan oʻzi suhbatlashish holati monologga misol boʻladi. **“Xoʻrlanganlar va**

haqoratlanganlar” asarida esa har uchala holat namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

“... Men yana nimalar deganim esimda yo‘q. U o‘rnidan qo‘zg‘alishga urindi, ozgina ko‘tarilgandan keyin o‘zini yerga tashladi va yana xirillab bo‘g‘iq tovush bilan g‘o‘diray boshladi. Men unga yaqinroq engashib gapini eshitdim.

- *Vasilevskiy orolida, - xirilladi chol, - oltinchi liniya... oltinchi liniyada...*

U jimib qoldi.

- *Siz Vasilevskiyda turasizmi? Lekin siz u yo‘q tomonga yurmadingiz; o‘ngda emas, chap tomonda, men hozir sizni eltib qo‘yaman...*

Chol qimirlamadi. Men uning qolini ushlagan edim, qo‘li o‘liknikidek shalop etib tushib ketdi. Men uning yuziga qaradim, ushlab ko‘rdim: chol qazo qiigan edi. Nazarimda, bu narsalar tushimda sodir bo‘layotgandek edi”[3]. Ushbu parchada biz hikoyachi nutqi, qahramon nutqi va o‘z navbatida qahramon nutqi turining bo‘lagi bo‘lmish dialog nutqini ham uchratamiz.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar ichida qo‘llangan til uslubi va unsurlari, badiiy tasvir vositalarini qay darajada ishlatish, so‘zlar emotsionalligini oshirish maqsadida o‘z o‘rnida foydalanish va qo‘llash badiiy asar tilining belgilari va detallari ekanligini aniqlandi. Nutqning kimga tegishliligi, obrazlilik, badiiy asar tilining tasviriy va hissiy xususiyatlari badiiy asar tiliga xos xususiyatlar ekanini anglatishini, ular bo‘lmasa biz asarni va asarning maqsadini ham tushuna olmasligimiz tayin ekani aniq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Umurov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” –Toshkent: A.QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI, 2004.
2. D. Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” - Toshkent: Fan “ nashriyoti – 2007.
3. F. Dostoevskiy. “Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar “ – Toshkent: “Yosh kuch”, 2023.
4. I.Shukurov N. va boshqalar. “Adabiyotshunoslikka kirish” – Toshkent: «O‘qituvchi», 1979 . – B. 117.
5. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi” www.ziyouz.com kutubxonasi